

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI BOG'LANISHLI NUTQQA O'RGATISH

Shukrullayeva Zulfiya Nasrullayevna

Buxoro pedagogika kolleji. Bolalar nutqini o'stirish fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha bolalarni nutq faoliyatini o'rganish, ularni bog'lanishli nutqqa o'rgatish va ularni metodlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim muassasalari, ta'lim, maktabgacha ta'lim, bolalar, nutq, metod.

Annotation: This article talks about learning speech activities of preschool children, teaching them connected speech and their methods.

Keywords: preschool educational institutions, education, preschool education, children, speech, method.

Аннотация: В данной статье рассказывается об обучении речевой деятельности дошкольников, обучении их связной речи и их методах.

Ключевые слова: дошкольное образовательное учреждение, воспитание, дошкольное образование, дети, речь, метод.

Maktabgacha yoshdagi barcha bolalarda nutq muammolari mavjud. Shu muammolarni hal etish uchun kuchlli metodga ega bo'lgan mutaxassislar javobgarlikni o'z zimmalariga olganlar. Nutq ravon bo'lgan bolada kelajakda kam muammolar paydo bo'ladi. Shu davrgacha nutqi soz bo'lgan barcha bolalar ko'p muvaffaqiyatlarga ega bo'lib kelishmoqda. Avvalo, bu metodning asosi bolaning oilaviy muhiti va uning ota-onasining muomalasiga bog'liqdir. Bolaning nutqi ravon va chiroyli bo'lishi ota-onasining ungga bergan tarbiyasida namoyon bo'ladi. Garchi tarbiyada ota-ona adashgudek bo'lsa, bola nimjon, qo'rqqoq va zaif bo'lib ulg'ayadi, buning oqibatida bola o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. O'ziga ishonchi bo'lmagan bolada nutq muammolari juda ko'p uchraydi, bu hayot tarzidagi jarayonlarda ham ko'p uchraydigan holatlardandir. Bolani ko'p koyish, uning qilgan ishidan ayb qidirish, uni boshqa tengdoshlariga solishtirish bu juda katta xato va bolaga qilingan eng yomon zulmlardan hisoblanadi. Bolada nutq ravonligini oshirish uchun uning atrofida gilar ham ravon so'zlashishlari kerak bo'ladi.

Bolalarda nutqni tushinish rivojlanadi (so'zli topshiriqlar, kattalarning ko'rsatmalarini, soddaroq badiiy asar mazmunini tushunadilar). Endi nutq faqatgina a vositasi emas, balki kattalarning so'zlar bilan tushuntirishi orqali bilim manba Bolaning kattalar va tengdoshlar bilan bo'ladigan murakkab va har xil muomalasi nutq

rivojlanishini ta'minlaydi: tasavvu uning nutqi fe'llar, olmoshlar, sifatlar, ravishlar, old qo'shimchalar bilan boyiydi.

Har bir bola bog'chada o'z fikrini mazmunli, grammatik jihatdan to'g'ri, bir mantiqan bog'langan holda bayon qilishga o'rga mantiqiy tafakkuri, idrok qilganlari yuzasidan fikrlashi va mantiqiy nutqda uni to'g'ri, aniq, ravon bayon etishi aks etadi. Bolaning o'rivojlanganlik darajasini bilish mu Bolalarda bog'lanishli nutqning rivojlanishi ona tiliga o'rgatishning quyidagi vazifalarini hal qiladi:

1. lug'at ishini (keng so'zlar to'plami va undan foydalana olish, muloqot jarayonida so'zlarning sinonim, antonim va omonimlarini qo'llash, fikrni yordam beradi);
2. nutqni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirishni (o'z fikrini sodda va yoyiq, ergashgan va bog'langan qo'shma gaplardan, son, sifat, ravish, egalik va kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalangan holda bayon qilish);
3. nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni (nutqning aniq, mazmundor, burro bo'lishi).

Bog'langan nutq - bu bolaning fikrlarini aniq, izchil va keraksiz tafsilotlarga berilmagan holda bayon etish qobiliyatidir. Bog'langan nutqning asosiy turlari monolog va suhbat hisoblanadi.

Suhbatda, so'zlar yangiliklar va shovqinlar bilan to'ldiriladi. Muloqotda savollarni tez va aniq shakllantirish va suhbatdoshingiz bergan savollarga to'liq va aniq javob berish muhimdir. Monologda bola mo'tadil ravishda, hissiy jihatdan so'zlay olishi kerak va ayni paytda fikrlarini tafsilotlarga berilmay bayon eta olishi lozim.

Pedagogik fan sifatida logopediyada «nutqning to'liq rivojlanmaganligi» tushunchasi, eshitish va intellekti normada bo'lgan bolalarda barcha nutq kamponentlarining shakllanishi buzilishi bilan xarakterlanuvchi nutq kamchiligiga nisbatan qo'llaniladi «Nutqning to'liq rivojlanmaganligida nutqning kechroq paydo bo'lishi, lug'atning kambag'alligi, agrammatizm, talaffuz kamchiliklari kuzatiladi.»

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi tushunchasi bola nutqi rivojlanishining aniq holatidan kelib chiqqan holda, o'zining etilogiyasi bo'yicha nutq rivojlanmaganligining turli xil ko'rinishlariga yagona pedagogic yondashuv imkoniyati haqidagi ilg'or nuqtai nazarga asoslanadi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi termini nutq rivojlanishi buzilishiga g'oyat chuqur yondashuvni ifodalaydi va uni tahlil qilish pedagog zimmasidadir. Bunday yondoshuv mutaxassisdan katta umumbiologik va tibbiy malakani talab qiluvchi, nuqson tuzilishini patogenetik jihatdan tahlil qilishni talab qilmaydi.

1. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi.

Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o‘yin, predmetlar va o‘yinchoqlar bilan tajriba o‘tkazish, qog‘ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo‘shilib ketgan, so‘ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojining qondirilmaslari ular o‘rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ba’zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig‘lab yuboruvchi bo‘lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Bola hayotining to‘rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o‘yindagi sherik sifatida qolaveradi.

Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar:

- bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o‘z istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko‘rsatib fikr bildirishga intilishini qo‘llab-quvvatlang;
- tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o‘z taassurotlarini ular bilan o‘rtoqlashishni istashi, o‘yin harakatlari, ro‘y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag‘batlantiring;
- bolangizning lug‘at [zahirasini kishilar](#), o‘simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o‘yinchoqlar, narsa-buyum qismlari (ko‘ylak yengi, cho‘ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g‘ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda so‘zlarni bir-biriga to‘g‘ri bog‘lashni (masalan, «Uyda ketdi» emas, «uyga ketdi», «Kecha boraman» emas, «Bugun boraman») o‘rgatishga alohida e‘tibor bering;
- bolalarni unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgating.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, o‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlar va an‘analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r

istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Shodiyeva, "Nutq o'stirish uslubiyoti", Toshkent
2. "Bolalarning nutqini o'stirish" o'quv –uslubiy majmua.
3. Babayeva, "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi", Toshkent,2018